

**SURXONDARYO VILOYATIDA ERTAGI KARTOSHANING HOSILDORLIGIGA  
TUP QALINLIGINING TA’SIRI**

**Qahramonova Shohsanam**

**Orolova Madina**

*Termiz agrotexnologiyalari va inovatsion rivojlantirish instituti talabalari:*

Respublikamizda juda ertagi kartoshka Surxondaryo viloyatida yetishtiriladi. Bu viloyatda ertagi kartoshkaning yangi hosili aprel oyining 3 o'n kunligidan boshlab sotuvga chiqariladi. Bu paytlarda 1 kg kartoshkaning xarid narxi o'rtacha 8-10 ming so'mni tashkil etadi. Surxondaryolik dehqonlarning ta'biri bilan aytilganda iyun-iyul oylarida 1 gektar kartoshkadan 25-30 tonna hosil yetishtirishga nisbatan may oyining 1 o'n kunligigacha 1 ga. dan 10 tonna hosil yetishtirish samaralidir.

Mavzuning dolzarbligi. O'simlikning oziqlanishi maydoni hisobga olinmaydi. Bunday navlar intensiv tipdagi tipga oid navlardir. Intensiv tipdagi navlarni o'stirishda katta oziqlanish maydoni va navga xos oziq moddalar bilan yetarlicha ta'minlash zarur.

Ertagi kartoshkadan har doim ham ko'zlangan hosildorlikka erishilmaydi. Sababi, ertagi kartoshka tugunagi ekish oldi nishlatilmaydi. Navlarning morfo-biologik xususiyatlari va urug'likning reproduksiyasi e'tiborga olinmaydi. Surxondaryo viloyatida 1 chiziqli metrda 6-8 dona urug'lik tugunagi ekiladi. Tugunaklarni bunday qalin joylashtirish 70x15 sm ekish tartibiga to'g'ri keladi. O'simlikning oziqlanish maydoni hisobga olinmaydi. O'rganilgan ma'lumotlar ko'rsatishicha, so'ngi paytda ekilayotgan kartoshka yangi navlarning poyasi uzun, sershox va serbarg bo'ladi. Bunday navlar intensiv tipdagi tipga oid navlardir. Intensiv tipdagi navlarni o'stirishga katta oziqlanish maydoni va navga xos oziq moddalar bilan yetarlicha ta'minlash zarur.

Urug'likni qalin ekishga nisbatan „siyrak 70x25sm oziqlanish maydonida o'stirilsa, pushtani va o'simlik orasini yumshatish oson bo'ladi. O'simlik bo'g'ziga yumshoq tuproqni to'plashni imkon tug'iladi. Pirovardida yumshoq tuproqda stolonlar yaxshi shakllandi, paydo bo'lgan tugunaklar normal holatda nafas oladi va yiriklashadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ertagi kartoshkaning hosildorligiga tup qalinligi yoki o'simlik oziqlanish maydoning ta'sirini o'rganish dolzarb masala bo'ladi.

Dala tajribalari Termiz agrotexnologiyalari va inovatsion rivojlantirish institutining o'quv-tajriba xo'jaligida o'tkaziladi

Tajriba maydoni och tusli bo'z tuproqli, mehanik tarkibi o'rta qumloqli. Oziq moddalar bilan kam tarqalgan. Tajriba ob'ektlari sifatida kartoshkaning tez pishar „Gala“ va „Surxon-1“ navlarining 2 reproduksiyasi urug'ligidan foydalanildi. Har bir nav 70x15, 70x20 sm. 70x25 va 70x35 ekish sxemasi yoki mutanosib ravishda

95.2,71.4,57.5 va 46.7 ming/gat up qalinlikda ekib o'rganiladi. Tugunaklar avval yaxshi nishlatib, keyin 9-fevraldan 6-8 sm chuqurlikka ekiladi. Ekish paytida tugunaklarning ustiga 500 g dan chirigan go'ng bilan yopilgandan keyin pushta ustiga ham shuncha miqdorda go'ng bilan mulchalash o'tkazildi. Bo'lmachalar maydoni 56 kv m. {to'rt qatorli, qator orasi 0.7 m va qatorli uzunligi 20 m}. Taqqoslab o'rganish uchun 70x15 ekish tartibdan foydalaniladi.

Tuproqda oziq moddalar kamligini hisobga olgan holda sof holda azot-150 kg, fosfor -120 kg va kaliy-75 kg qo'llaniladi. Tadqiqotlar-O'ZPITI 2007 y, Butunrossiya kartoshka xo'jaligi ilmiy-taqiqot instituti 1989 y va O'zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI 1978 y uslublari bo'yicha o'tkazildi.

Ekish bilan bir vaqtda mulchalash o'tkazishda pushta ustiga sepilgan go'ng ta'sirida qatqaloqning oldi olinadi va tuproq bilan tugunak orasidagi chirigan go'ng tugunak o'simtalarini sovuqdan saqlab turadi. Birinchi marta oziqlantirish va ishlov berishda tuproq orasidagi va pushta ustiga chirigan go'ng tuproqqa aralashib, oziqa vazifasini o'taydi.

Har bir nav; -70x15; 70x20 sm 70x25 va 70x30. Ekish sxemasi yoki mutanosib ravishda 95.2; 71.4, 57.5 va 46.7 ming/ga tup qalinlikda ekib o'rganildi. Tuproqda oziq moddalar kamligini hisobga olgan holda sof holda azot-150 kg, fosfor-120 kg va kaliy -75 kg qo'llaniladi.

Dala tajribasida maysalash 1-2 mart kunlari kuzatiladi. Gullash fazasi maysalashdan keyin navlarga bog'liq holda 37-40 kun o'tgandan keyin, ya'ni 16 va 19 aprel kunlari sodir bo'ladi. Bahorning salqin va iliq kunlarida o'simliklar avj bilan o'sib rivojlandi. Siyrak 70x25 va 70x30 sm tartibda ekilgan kartoshka navlari qalin 70x15 sm tartibda ekilganda nisbatan yaxshi o'sib rivojlanadi. O'simliklarda kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanishi kuzatilmadi. Maysalash davridan 84-85 kun o'tgandan keyin hosil yig'ishtirildi. „Surxon-1“ navidan yuqori hosil 23-28 t/ga 70x20 tup qalinlikda o'stirilganda va „Gala“ navidan yuqori hosil 32 t/ga 70x20 tup qalinlikda o'stirilganda va „Gala“ navidan yuqori hosil 32 t/ga 70x25 sm tartibda ekib o'stirish tufayli yetishtiriladi.

Bundan tashqari kartoshka hosilining Tovar qismi chiqimi har xil midorda bo'ldi. „Surxon-1“ navida hosilning tovar qismi 93.2-96.5 foizni „G'ala“ navidan 94.1-96.9 foizni tashkil etadi. Ikkala nav bo'yicha ham hosilning tovar qismi katta oziqlanish 70x25 va 70x30 sm maydonida o'stirilgan variantlarda kuzatiladi.

Surxondaryo viloyatining oziq moddalari bilan kam ta'minlangan o'rta qumloqli och tusli bo'z tuproqli sharoitda kartoshkaning tez pishar navlaridan 28 va 32 t/ga. Ertagi hosilni yetishtirish uchun ekish oldi urug'lik tugunaklari nishlatish va 70x20 va 70x25 sm ekish tartibda ekib o'stirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Surxondaryo viloyatining oziq moddalari bilan kam ta'minlangan o'rta qumloqli och tusli bo'z tuproqli sharoitda kartoshka tez pishar navlaridan 28 va 32 t/ga

ertagi hosilni yetishtirish uchun, ekish oddiy urug'lik tugunaklari nishlatish va 70x20 va 70x25 sm ekish tartibda ekib o'stirish maqsadga muvofiqdir.